

NASIROVA Malika

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O'zbek tili va mumtoz sharq
adabiyoti kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
m.nasirova@iia.uz*

ERIMMATOVA Zuhra Azimboy qizi

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
1-bosqich talabasi
fotimaerimmatova907@gmail.com*

ARAB TILIDA ORTTIRMA DARAJADAGI SIFATLARNING STRUKTURAVIY VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

СТРУКТУРНО- СИНТАКСИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ ПРЕВОСХОДНОЙ СТЕПЕНИ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

STRUCTURAL AND SYNTACTIC CHARACTERISTICS OF ADJECTIVES IN THE ARABIC LANGUAGE

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tili grammatikasi nahv bo'limiga oid fe'lining vazifadosh shakllaridan biri orttirma darajadagi sifatning yasalishi va sintaktik xususiyatlari tahlillari keltirilgan. Ushbu mavzu doirasida bir qancha nahvshunos olimlarning qarashlari, jumladan alloma Mahmud Zamaxshariyning arab tili grammatikasida mumtoz manba sifatida qadrlanadigan "al-Mufasssal fi san'ati-l-e'rob" asaridan fikrlari keltirilgan. Shu bilan birga fe'ldan yasalgan ismlardan bo'lmish orttirma daraja sifati fe'lining sintaktik vazifasini to'liq bajarishi yoki bajara olmasligi to'g'risida mo'tabar manbalardan misollar keltirildi. Nahvshunos olimlar o'rtasida bo'lib o'tgan mashhur "surma" bahsli munozarasi muhtasab yoritib berildi.

Kalit so'zlar: nahv, "surma", sifat, majoz, e'rob.

Аннотация. В данной статье речь идет об аккумулятивном качестве, одной из функциональных форм глагола, и представлен анализ его образования и синтаксических особенностей. В рамках этой темы представлены взгляды нескольких ученых-лингвистов, в том числе взгляды Аллмы Махмуда Замахшари из «Аль-Муфасссал фи санати-ль-ураб»,

который ценится как классический источник по грамматике арабского языка. В то же время есть примеры из авторитетных источников о том, может ли прилагательный превосходной степени, являющийся существительным, образованным от глагола, полностью выполнять синтаксическую функцию глагола. Кратко была освещена противоречивая дискуссия о «сурме» среди грамматиков.

Ключевые слова: грамматика, «сурма», прилагательное, метафора, флексия.

Annotation. This article is about the accusative quality, one of the functional forms of the verb, and analyzes of its formation and syntactic features are presented. Within this topic, the views of several linguistic scholars are presented, including the views of Allama Mahmud Zamakhshari from "al-Mufasssal fi san'ati-l-e'rab", which is valued as a classic source in the grammar of the Arabic language. At the same time, there are examples from authoritative sources about whether the accusative adjective, which is a noun formed from a verb, can or cannot fully fulfill the syntactic function of the verb. The controversial discussion of "surma" among grammarians was briefly covered.

Key words: grammar, surma, adjective, metaphor, inflection

KIRISH

Til bilimlarining taraqqiyotiga arab tilshunoslik maktablarining hissasi katta. Arab tilshunoslari klassik arab tilining fonetik tuzilishi, grammatikasini qisqa davr ichida ishlab chiqqanlar va bu yo'nlaishlarda katta yutuqlarni qo'lga kiritishgan. Bunga sabab arablar o'z tilining sofligi va boyligini yuqori darajada qo'yadilarki, arab adabiyoti tarixchilaridan bo'lmish R.Nikolsonning yozishiga ko'ra, «Agar arablarning faxri va g'ururi bo'lgan tili ularni o'z tillarining sofligini saqlashni milliy burch darajasiga ko'targan ekan, bu narsa ularning diniy qarashlari bilan ham bog'liq. Bu ularni Qur'oni karimni to'g'ri o'qish va talaffuz qilishni ta'minlash uchun qat'iy chora-tadbirlar ko'rishga undagan» [14:2]. Buning natijasi o'laroq bir qancha ilmlar hamda arab tilshunosligi shakllangan.

ASOSIY QISM

Orttirma darajadagi sifat o'zbek tilida sifat va arab tilida ism so'z turkumiga mansub bo'lib, ikkita so'zda mavjud bo'lgan belgi boshqasida ortiqroq darajada ekanligini ifodalovchi kategorial hodisa hisoblanadi. Aynan mazkur mavzuda ko'plab arab tilshunoslari so'z yuritishgan va unga oid bir

qancha kitoblar ham yozilgan. Masalan, arablarning hujjati va dasturi bo'lgan [97:5] [الكتاب] asari muallifi Sibavayhi (Abu Bishr Amr ibn Usmon ibn Qanbar al-Basriy, milodiy (760-796) o'zining ushbu asarida orttirma daraja haqida ma'lumotlarni bergan. Ushbu kitob arab tili grammatikasiga oid dastlabki mukammal asarlardan biridir. Unda arab tili grammatikasi sintaksis (نحو), morfologiya (صرف) hamda fonetikaga oid (ادغام) va boshqa bir qancha yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Tadqiq etilayotgan mazkur mavzu ham barcha nahv kitoblarida, alohida ajratilgan bobda, "fe'lga o'xshash ismlar" yoki "fe'llardan yasalgan ismlar" nomi ostida bayon qilinadi.

Fe'ldan yasalgan ismlar (mushtaqot)ning soni nahvshunos olimlar asarida biroz farqli bo'lib, Ibn Hishom (Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf Ansoriy) ularning sonini yettita [386:7], Mahmud Zamaxshariy (Abu Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Zamaxshariy, milodiy 1075-1143) [45:4] va Abu Ya'qub Sakkokiy (Sirojiddin Abu Yaqub yusuf ibn Bakr ibn Muhammad ibn Ali Sakkokiy Xorazmiy Hanafiy, milodiy 1160-1228) sakkizta [340:8], zamonaviy tilshunos olimlardan Mustafo G'alayiniy (Mustafo ibn Muhammad ibn Salim ibn Muhyiddin ibn Mustafo G'alayiniy, milodiy 1886-1944) esa to'qqiz tur deb zikr qilgan [160:6]. Barcha nahvshunos olimlar orttirma darajadagi sifat ulardan bir nav ekanligiga hamfikrdir va ularning orttirma darajadagi sifatga ta'rifi quyidagicha: bu ikkita muayyan narsa bitta holatda mavjudligini ko'rsatadigan sifat bo'lib, ulardan biri bu masalada boshqasidan ustunligini, ortiqqligini muzakkar jins uchun أَفْعُلُ vaznida, muannas jinsidagi so'zlar uchun أَفْعُلُ vazni bilan ifodalashdir.

Nahv borasida o'ziga xos o'ringa ega olim Mustafo G'alayiniy "Jamiu-d-durusu-l-arobiyya" asarida fe'llarning muayyan sintaktik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan so'zlarni شَبِيهَ الْفِعْلِ مِنَ الْأَسْمَاءِ (fe'lga o'xshash ismlar) nomi bilan keltiradi va ularning soni to'qqizta ekanligini qayd qiladi. Ulardan bittasi Ortirma darajadagi sifat bo'lib, fe'ldan Ortirma darajadagi sifatni yasashda bir qancha shartlar bor va ular quyidagilar:

1) fe'l uch o'zak undoshdan iborat bo'lishi;

2) fe'l aniq nisbatda turishi;

3) tom - to'liq sintaktik xususiyatga ega bo'lgan ma'noviy fe'l bo'lishi lozim. كان و أخواتها kabi yordamchi fe'llardan orttirma darajadagi sifat yasalmaydi;

4) fe'l بَسْ kabi jomid, ya'ni bir shaklda "qotib qolgan" yoki bitta zamonga ega fe'llardan bo'lmasligi darkor;

5) bo'lishli, ya'ni tasdiq ma'nosidagi fe'l bo'lishi lozim;

6) shaxs va predmentlarning xususiyat, ayb-nuqsonlarini ifodalovchi fe'llardan orttirma darajadagi sifatlar yasalmaydi. Shuningdek, أَفْعُلُ vaznida turgan bu turdagi sifatlarni orttirma darajadagisi bilan adashtirmaslikka e'tibor qaratish lozim.

Ammo Sakkokiyning "Miftahu-l-ulum" asarida "fe'l bo'lishsiz yoki majhul nisbatda qiyoslansa, bu kabi holatlarda ham orttirma daraja sifati u bilan ما yuklamasi yordamida bog'lanishi mumkinligini eslatib o'tilgan [81:1]. Misol uchun:

أَفْجَحَ شَيْءٌ مَا عَلِمْتُ الْعِلْمَ نَافِعًا - *Ilmning foydali ekanligini bilmasliging eng yomon narsadir.*

Alloma Mahmud Zamaxshariy "al-Mufasssal" asarida o'zak harflari uch undoshdan ortiq bo'lgan fe'llardan ham Ortirma darajadagi sifat yasalishi mumkinligini, bunda ma'noga munosib uch o'zakli so'z tanlanib, ziyoda harflardan tarkib topgan fe'lning masdar shaklini keltirish bilan gapda qo'llanilishi mumkinligi aytilgan.

هذا أَسْرَعَ إِنْطِلَاقًا مِنْ غَيْرِهِ - *Bu boshqalarga qaraganda tezroq.*

Shuningdek, "al-Mufasssal" asarida ranglarni ifodalovchi so'zlardan ham orttirma daraja hosil qilinishi mumkin, bunda rang ma'nosi emas, boshqa bir ma'noni nazarda tutgan holda keltiradi [121:4]. Misol uchun:

هُوَ أَحْمَرُ مِنْ هَذَا - *U bundan eng ahmoqi.*

Bu gapda rang darajasi emas, majoziy ma'no ifodalangan. Mana shu o'rinda, oq rangning orttirma darajasi qushlarning patidagi oqlik darajasiga nisbatan aytilganda qo'llash mumkinligiga quyidagi misol keltiriladi:

هُوَ أَيْبُضُ مِنَ الْبَيَاضِ - *U oqlikda undan oppoq.*

Yuqorida aytib o'tilgan shartlar fe'lda topilsa, sifatning orttirma darajasini yasash mumkin bo'ladi. Agar fe'l oldingi shartlarga mos kelmay qolsa, orttirma darajadagi sifat sintaktik yo'l bilan, ya'ni أَكْثَرُ، أَكْثَرُ، أَكْثَرُ kabi so'zlardan birini tanlab, ulardan so'ng harakat nomi(masdar)ni tushum kelishigida, noaniq holatda keltirish bilan ham hosil qilinadi. Bunga quyidagicha misol keltirish mumkin:

أَلِي أَكْثَرُ تَسَامَحًا مِنْ أَخِيهِ - *Ali ukasidan ko'ra muruvvatliroq*

هَذِهِ الْوَرْدَةُ أَشَدُّ حُمْرَةً مِنْ تِلْكَ - *Bu atirgul narigisidan qizilroq*

Bundan tashqari, arab tili grammatikasida أَفْعُلُ vaznida bo'lmagan حَبٌّ، شَرٌّ، خَيْرٌ - uchta so'zning orttirma darajadagi sifat o'zidan hosil bo'ladi. Misol

uchun, Alloh taoloning A'rof surasi 12-oyatda iblis o'zini Odam (a.s)dan afzal tutgan holatida :

{ قَالَ أَنَا خَيْرٌ مِنْهُ } U: «Men undan yaxshiman» dedi.

Yurtlarning eng yomoni, do'st yo'q bo'lgan yurtidir.

Shoir Ahvas Ansoriy o'z she'rida:

و زادني كلفا في الحب منعت وحب شيء إلي الإنسان ما منعا

(U(m.n) man qilgani menda muhabbatni ziyoda qildi,

Insonga eng sevimli narsa unga man qilingan ashyolardir.), - deydi.

O'zbek tiliga muqoyasa qilingan holatda orttirma darajadagi sifatlar uch usulda: fonetik, ohang va leksik usullar orqali yasalsa, arab tilida quyidagi usullar vositasida o'zidan keyingi so'z bilan grammatik munosabatga kirishadi:

Orttirma darajadagi sifat moslashgan aniqlovchi kabi sifatlanmishdan keyin keladi[:3], masalan:

الطالبان الحسنان - Eng yaxshi talaba; Eng yaxshi talaba - Ikkita eng yaxshi talaba

الطالبة الحسنى - Eng yaxshi talaba qiz; الطالبان - Ikkita eng yaxshi talab qiz

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "al Mufasssal" asari sohibi bu darajadagi sifat borasida ikkita holat haqida xabar beradi. Birinchisi, "من" ko'makchisi bilan kelsa, sifat noaniq holatda, birlikda va muzakkar jinsda turadi, misol uchun:

العلم أنفع من المال - Ilm mol-mulkdan foydaliroqdir.

هندان أفضل من عمرو - Ikkita Hind Amrdan afzalroqdir.

Bu misolda أنفع va أفضل so'zlari orttirma darajada kelmoqda va u o'zidan oldingi ot bilan moslashmayabdi. Shu bilan birgalikda ular kelishiklarda to'liq turlanmaydi.

Ikkinchisi esa, "من" ko'makchisidan ajralgan holda orttirma darajadagi sifat "ال" artikli bilan aniq holatda kelishi lozim. Yuqoridagi misollar ikkinchi holatga munosib o'laroq, sifat sifatlanmish bilan jinsda, sonda, holatda va kelishikda to'liq moslashyabdi.

1) Izofa orqali, ya'ni orttirma darajadagi sifat mudof o'rnida keladi va har ikki jinsda o'zgarmay أَفْعُل shaklini saqlab qoladi. Sifatlanmish esa, ko'plikda, aniq holatda, qaratqichli aniqlovchi (mudof ilayhi) bo'lib keladi. Misol uchun:

أحسن الطالبات - Talaba qizlarning eng yaxshisi

Ibn Hishom, bu o'rinda qaratqichli aniqlovchi (mudof ilayhi) aniq holatda tursa, ikkita holat joizligini, orttirma darajadagi sifat sonda

moslashishi yoki moslashmasligi mumkinligini ta'kidlagan [416:7].

الزيدان أفضل القوم - Ikkita Zayd qavmning eng yaxshisidir.

Bunda orttirma darajadagi sifat kesim o'rnida bo'lib ega bilan sonda moslashmayabdi. Yoki

الزيدان أفضل القوم - Ikkita Zayd qavmning eng yaxshisidir.

Eng to'g'risi moslashmasligi ekanligini qayd etgan. Bu masalada Ibn Sarroj (Ibn Sarroj Abu Bakr Muhammad ibn as-Sirriy ibn Sahl an-Nahviy) moslashmasligi lozimligini ta'kidlaydi.

2) Izofa hosil qilish yo'li bilan, bunda orttirma darajadagi sifat mudof bo'lib, sifatlanmish esa birlikda noaniq holatda mudof ilayhi bo'lib keladi. Masalan:

أحسن طالب - Eng yaxshi talaba

Orttirma darajadagi sifat gapda egallagan o'rniga ko'ra kelishiklarda o'zgaradi. Qoidaga muvofiq predloglardan keyin kelsa qaratqich kelishigida, ega yoki kesim o'rnida bo'lsa bosh kelishikda bo'ladi. Shunga qiyosan gapda turgan o'rni uning kelishiklarda o'zgarib kelishini ta'minlaydi. Misol uchun Alloh taolo G'ofir surasi, 82-oyatida shunday marhamat qiladi:

كَانُوا أَكْثَرَ مِنْهُمْ وَأَشَدَّ قُوَّةً وَأَثَارًا فِي الْأَرْضِ فَمَا أَغْنَىٰ عَنْهُمْ مَّا كَانُوا يَكْسِبُونَ

Holbuki, o'shalar bulardan ko'ra quvvatliroq va yer yuzida asarlari ko'proq bo'lgan edilar. Bas, ularga kasb qilgan narsalari asqotmadi.

Bu oyatda رثك so'zi orttirma darajadagi sifat bo'lib, yordamchi fe'l (ن ك) ning kesimi vazifasida tushum kelishigida kelmoqda. كَشْرَ so'zi ham orttirma darajadagi sifat bo'lib, bog'lovchi vositasida o'zidan oldingi so'z رثك ning kelishik ko'rsatgichiga ergashadi.

Nahvshunos olimlarning barchasi bu orttirma darajadagi sifat ko'pgina hollarda fe'lining sintaktik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirib kelishini ta'kidlashadi. Ya'ni mazkur sifat tarkibida yashiringan olmoshni bosh kelishikda keltira olish xususiyati mavjud. Misol uchun,

زيد أفضل من عمرو - Zayd Amrdan ko'ra fazilatliroq.

Bu ismiy gapda Zayd ega, أفضل so'zi kesim. Kesim vazifasida esa fe'ldan yasalgan orttirma darajadagi so'z turibdi. Asl qoidaga ko'ra, fe'l o'zining ish-harakat bajaruvchisini bosh kelishikda keltirgani kabi, bu fe'l maqomida turgan so'z ichida yashiringan holmoshi bor va u Zaydni ifoda etadi.

Aksincha, fe'ldan yasalgan orttirma darajadagi sifat o'zidan keyin kelgan, ko'rinib turgan so'zni

bosh kelishikda keltirishida esa turli xil qarashlar mavjud. Bunga misol o'laroq:

مررت برجل أفضل منه أبوه - Otasi undan yaxshi bo'lgan kishi yonidan o'tdim.

أفضل so'zi kelishiklarda to'liq turlanmaydigan bo'lganligi uchun fatha [] bilan qaratqich kelishigida kishi so'zining moshlashgan aniqlovchisi bo'lib kelmoqda otasi so'zi esa أفضل so'ziga ega vazifasida turganligi bois bosh kelishikdadir, deb bir guruh olimlar o'z qarashlarini ifodalaydi. Bu fikrni qo'llab-quvvatlovchilar kamchilikni tashkil qiladi. Ko'pchilik esa, أفضل so'zini bosh kelishikda turgan va gapda egadan, yani أبوه oldin kelgan kesimdir. أفضل so'zi ichida yashiringan olmosh kechikkan ega أبوه ga ishora qiladi.

Bu mavzu doirasida katta bahsni keltirib chiqargan mashhur misol bu - الكل (surma) masalasidir [417:7]. Bu o'rinda ko'rinib turgan ism turkumidagi so'z bosh kelishikda keltiriladi. الكل so'zi bosh kelishikda turishiga gap shakli inkor yoki so'roq formadan birida ekanligidadir.

ما رأيت رجلا أحسن في عينه الكحل منه في عين زيد - Ko'zdagi surma Zaydning ko'zidagidan ko'ra chiroyliroq odamni ko'rmadim.

Mazkur misoldagi الكل (surma) so'zi fe'ldan hosil bo'lgan أحسن orttirma darajadagi sifat fe'lining ba'zi sintaktik xususiyatini mujassamlashtirgan holda uni bosh kelishikda kelishiga yuqorida aytib o'tilgan ikkita sababdan biri, ya'ni gap inkor formada ekanligidir. Nazarda tutilgan ma'no aslida: ما رايت رجلا يُحسِّن في عينه الكحل كزيد

Jumhur navhshunos olimlar fe'llardan yasalgan so'zlarning fe'llarga o'xshab o'zidan keyin keladigan so'zlarni tushum kelishigida keltirishiga ta'sir qila olmasligini birdek ta'kidlashgan. Bunga misol sifatida Alloh taoloning An'om surasi 117-oyati keltiriladi:

{ إِنَّ رَبَّكَ هُوَ أَعْلَمُ مَنْ يَضِلُّ عَنْ سَبِيلِهِ } - Albatta Robbing kim Uning yo'lidan adashishini yaxshi bilguvchidir.

Bu oytada "من" fe'ldan yasalgan orttirma darajadagi أَعْلَمُ ismga nisbatan to'ldiruvchi yoki uning moslashmagan aniqlovchi (mudof ilayhi)si emas. Oldin ta'kidlanganidek, u so'zlarni tushum kelishigida keltira olmaydi. Mazkur jumlaning to'ldiruvchi vazifasida kelishini navhshunos olim Ibn Hishom shunday sharhlaydi, أَعْلَمُ dan keyin kelayotgan birikma uning ta'siriga ko'ra to'ldiruvchi ham, moslashmagan aniqlovchi (mudof ilayhi) ham emas. Bu holatda أَعْلَمُ so'zining ma'nosiga ishora qiluvchi fe'l tushirib qoldirilganligi sababidan tushum kelishigi o'rnidadir. Nazarda tutilgan

ma'no: يعلم من يضلُّ، مضلين - kim adashishini, adashganlarni biladi ma'nosi ta'vil qilinadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, fe'llardan hosil bo'luvchi so'zlar turi biroz farqli bo'lib, odatga ko'ra har biri alohida mavzu ostida batafsil bayon qilinadi.

Ulardan orttirma darajadagi sifat gapda egallagan o'rniga, vazifasiga qarab kelishiklarda o'zgarishi, fe'llardan tarkib topish jihatidan esa bir qancha shartlarga ko'ra yasalishi lozimligi yoritib berilgan. Fundamental manba sifatida tan olingan

"al-Mufasssal" asarida boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumot rangni bildiruvchi vaznida turgan sifatlardan orttirma daraja hosil bo'lishi mumkinligi, unda majoziy ma'no anglashilishi qayd etilgan. Gap tarkibida o'zidan keyin o'rin egallaydigan so'z bilan bir necha usullarda grammatik jihatdan birikishi to'liq bayon qilingan.

Orttirma darajadagi sifat fe'l so'z turkumidan tarkib topishiga qaramasdan sintaktik jihatdan fe'lining barcha vazifasini to'liq bajara olmasligi hamda navhshunos olimlar o'rtasida fe'lga o'xshab o'z egasini bosh kelishikda keltirishi borasida mavjud bo'lgan munozaralar yuqorida misollar orqali dalillandi.

ADABIYOTLAR

1. Akmalxonov A.A. Sakkokiyning "Miftahu-l-ulum" asarida nahv va sarf masalalari: filol. PhD ... diss. - Toshkent, 2020. - 150 b.
2. Nosirova M. Tilshunoslik bilimlari tarixi (Arab tilshunosligi). - Toshkent: "Semurg' media" MCHJ, 2011. - 247 b.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. - Namangan, 1997.
1. أبو البقاء يعيش ابن علي ابن يعيش الموصلي. شرح المفصل في صناعة الإعراب لزمخشري. الجزء الرابع. دار الكتب العلمية: بيروت- لبنان. ١٠٠٢. - ٤٨٥ ص
2. أبو بشر عمر و بن عثمان بن قنبر. كتاب سبويه. الجزء الثالث. - القاهرة: مكتبة الخانجي، ٢٩٩١. - ٤٦٦ ص
3. الشيخ مصطفى الغليبي. جامع الدروس العربية. - بيروت: المكتبة العصرية، ١٤١٠هـ، ١٩٩١م
4. محمد محي الدين عبد الحميد. شرح على قطر الندى وبلا الصدى. دار الطلائع: مصر، ١٤٤١هـ، ١٩٠٢م
5. يوسف بن أبي بكر بن محمد بن علي السكاكي. مفتاح العلوم. بيروت - لبنان: دار الكتب العلمية، ٧٠٠٢. - ١٢٦ ص.